



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirish



4-mavzu:
Toza yer – sog'lom hayot
(Axlatni yerga tashlamaslik
odati)



4.1. Mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulotning maqsad va vazifalari	Ta'lim beruvchi faoliyati: • Bolalarga yerning toza bo'lishi qanchalik muhimligini sodda misollar bilan tushuntiradi. • Axlatni yerga tashlaganda tabiatga tushadigan zararlarni rasm, tajriba va o'yinlar orqali ko'rsatadi.	Ta'lim oluvchilar uchun kutilayotgan natijalar: • Axlatni qutiga tashlash odatini shakllantira oladi. • Tabiatga zarar yetkazadigan xatti-harakatlarni ajrata oladi. • "Tabiatning kichik yordamchisi" bo'lishga intiladi.
O'quv jarayoni mazmuni va mashg'ulotni amalga oshirish texnologiyasi	• Kirish – qiziqtirish, qizitish • Asosiy faoliyat – amaliy o'yinlar • Yakun – rag'bat	Shakl: o'yinli Metod: Muammoli vaziyat, rasmlar taqqoslash, harakatli o'yin Vosita: Rasm kartochkalari, axlat belgilari, karton quti, rangli qog'oz, marker, axlat qutisi modeli O'qitish sharoiti: Keng maydon yoki sinf xonasi, xavfsiz harakatli o'yin o'tkazish joyi, ko'rgazmali materiallar

4.2.Mashg'ulotning texnologik xaritasi


Kirish qismi (7 daqiqa)	Ta'lim beruvchi faoliyati: Bolalarga ikkita rasm ko'rsatadi: "Qaysi joyda yashash yoqimli?" "Nega bu yer iflos bo'lib qolgan?"	Bolalar faoliyati: Rasmlarni solishtiradilar. "Yerga tashlangan axlat yomon hid taratadi", "Hayvonlarga zarar yetadi" kabi fikr aytadilar.
Asosiy qism (16 daqiqa)	Kichik tajriba: "Axlat qanchaga qadar yerda qoladi?" Savol: "Biz tashlagan axlat qayerga ketadi deb o'ylaysiz?" Harakatli o'yin: "Axlatni top va qutiga tashla!" Xonaga (yoki maydonga) turli "axlat idishlari" joylab qo'yiladi.	• Javob: "Yerda qoladi", "Qaytib toza bo'lmaydi" • Harakatli o'yin: "Axlatni top va qutiga tashla!" Musika chalganda bolalar yuguradi. Musika to'xtaganda axlatlarni yig'ib axlat qutisiga tashlaydi.
Yakuniy qism (7 daqiqa)	• Suhbat: "Agar hamma axlat tashlayversa nima bo'ladi?" • Tarbiyachi savol beradi: "Qaysi joy sog'lom hayot uchun mos?" • Rag'batlantirish.	• Bolalar quyoshli, chiroyli rasm va axlatli manzara orasidan tanlaydi. • Xulosalash.

Tarqatmali material uchun

Axlat qachongacha yerda qoladi?

Tarbiyachi kartochkalar ko'rsatadi: Qog'oz – 2 yil Plastik – 100 yil Shisha – abadiy






Amaliy faoliyat: “Axlat qutisi yasaymiz”

- Karton qutidan kichik axlat qutisini yasash.
- Bolalar uni bezatadilar: “Toza yer – baxtli hayot!” shiorini yozish.

✋ O‘yin: “Axlatni top va qutisiga tashla!”

Ko‘zoynak rasmini chizing. Uning bir oynasiga tasavvuringizdagi go‘zal tabiat, ikkinchisiga noto‘g‘ri tashlangan axlatlardan ozor chekayotgan tabiat rasmini chizing.



“Tabiatning kichik yordamchilari”
eko qahramonlar sifatida
bolalarga sertifikatlar
topshiriladi.

